


YOSHLARNI TO'G'RI YO'NALISHGA QARATISH VA RAG'BATLANTIRISH



Dilnoza Nazarova

O'z DJTU 2 –bosqich talabasi

E-mail: dilnozaumirzakovna@gmail.com

studentkajahontillari@gmail.com

Mobil raqam: +99893 758 88 33

Annotatsiya : Ushbu maqola bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri – iqtidorli yoshlarga to'g'ri ko'rsatmalar berish va ularni rag'batlantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Ko'plab yosh kadrlarimiz o'zlari tanlagan yo'naliishlardan ketish o'rniga taklif berilgan, ota-onalari tomonidan ma'qul ko'rilgan oliy o'quv yurtlariga topshirishmoqda. O'z o'rnida bu mamalakatning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz, chunki kasbini sevmagan har bir kadr mamlakat rivoji uchun ijobjiy hissa qo'shishi kafolatlanmagan.

Abstract: This article deals with one of today's urgent problems - giving the right instructions to talented young people and encouraging them. Instead of leaving the fields of their choice, many of our young people are transferring to higher educational institutions that are recommended by their parents and approved by their parents. In its place, it will undoubtedly have a negative impact on the future of the country, because it is not guaranteed that every employee who does not love his profession will make a positive contribution to the development of the country.

Аннотация: В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем современности - правильное наставление талантливой молодежи и поощрение ее. Вместо того, чтобы уходить из выбранной ими области, многие наши молодые люди переходят в высшие учебные заведения, рекомендованные их родителями и одобренные их родителями. На своем месте она, несомненно, окажет негативное влияние на будущее страны, поскольку не гарантируется, что каждый работник, не любящий свою профессию, внесет положительный вклад в развитие страны.

Kalit so'zlar: Tanlov, ko'rsatma, iqtidor va rag'bat, nomutaxassislik, oliy ta'lrim muassasasi, talaba ishtiroki, muammo va yechim.

Key words: Selection, instruction, talent and motivation, non-professionalism, higher education institution, student participation, problem and solution.

Ключевые слова: Отбор, обучение, талант и мотивация, непрофессионализм, вуз, участие студентов, проблема и решение.

Jahon miqyosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekiston ham o'z o'rniغا ega. Fan va ta'lif, iqtisod va siyosat, manaviyat va madaniyat yuksalayotgan zamonda harakatdan to'xtash asosiy maqsadlar uchun tashlangan ilk mag'lubiyat qadamidir. Yurtimizning turli hududlarida minglab, balki yuzlab iqtidorli yoshlar ayrim sabablarga ko'ra o'z qobiliyatlarini to'laligicha ohib berishlariga imkon topa olishmayapti. Bu sabablarning eng asosiyлari qulay shart-sharoit yo'qligi, chekka maktab va o'quv dargohlarida yetarlicha malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan o'qitish tizimining pastligi, internet muammosi va yaqinlarining tanlov va tavsiyasiga ko'ra o'zlari istamagan yo'naliшlar tomon kelajakka qadam tashlashlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning aksariyatini hal qilishning, albatta, imkoni bor, ammo istaklariga qarshi tarafga yurish kabi muammoni bartaraф etish qiyin.

Bilamizki, hozirgi kunda oliy ma'lumotli bo'lism katta ahamiyat kasb etadi. Qaysi kompaniya yoki tashkilot, ta'lif muassasasiga borilmasin, oliy ma'lumotli shaxslargina va albatta yuksak bilim, tajribaga ega bo'lgan hamda kasbini sevadigan kadrlargina ishga olinmoqda. Bugungi kunda yurtimizda bilimli, tirishqoq kasb egalari ko'p, ammo ko'pchilik shu turdag'i insonlar o'zlaridan keying avlodni ham shu yo'ldan ketishlarini xohlashadi. Vaholanki, keljak uchun qadam tashlayotgan shaxs o'z yaqinlari uchu emas, o'zi uchun yo'l ochish ostonasida turibdi. Ba'zi ota-onalarimiz uchun farzandining qiziqishi, iqtidorining qizig'i yo'q, ular o'z qadamlarining davomiy bo'lismini xohlashadi. Natijada yosh avlodni ularga qiziq bo'limgan yo'ldan boshlashadi. Ko'pchilik insonlar uchun moliyaviy tomonning ustunligi beqiyos, qaysi yo'naliш tanlashining farqi yo'q, muhimi uning orqasidan keladigan daromadning miqdoridir. Hammamizga ayon bo'lgan bir misolni keltirmoqchiman. Bir abiturent o'zi uchun qiziq soha- til mutaxassisligiga oliy ta'lif yurtiga topshirmoqchi, lekin uydagi oila a'zolari uning shifokor bo'lismini xohlashadi. Ba'zilar o'z maqsadi, ko'zlagan yo'naliшidan qaytishmaydi, ammo ba'zilar oila a'zolarining xohish-istaklari bilan ish ko'rishadi va keljakda o'zlari uchun ahamiyatsiz bo'lgan yo'naliшning egasi bo'lismadi. Boshida to'g'ri yo'naltirilmagan tanlov keyinchalik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aksincha ishtiyoq bilan tanlangan kasbhunarni, tanlovni, yo'naliшni qo'llab-quvvatlash o'smir hayotida ijobiy ahamiyat kasb etadi. Uning mamlakat kelajagi uchun qo'shadigan hissasini ta'minlaydi.

Ikkinci e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan masalalardan biri bu yoshlarni rag'batlantirish. Hozirgi kunda ko'plab iqtidorli yoshlarimiz yurtimizning turli ta'lif muassasalaridan ta'lif olishmoqda. Har bir inson o'z qilgan mehnatining qanchadir miqdorda natijasini ko'rishni xohlaydi, qilingan sa'y-harakat meva bersagina, qolgan maqsadlar oyoqqa turadi. Shu turdag'i ishlarni olib boorish maqsadida yurtimizda turli xil davlat stipendiyalari tashkil qilinmoqda. Masalan, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Prezident stipendiyasi, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi,

Faynberg stipendiyasi va boshqalar kabi bir qator davlat stipendiyalari joriy qilingan va bularning egalari va talabgorlari yildan yilga oshib bormoqda. Bu turdag'i yoshlarni yanada ishtiyoqmand qilishga, o'z kuchini ko'rsatishga yanada undaydigan harakatlar, albatta, ijobiy yo'lida xizmat qiladi. Misol qilib oladigan bo'lsak, hozirgi kunda o'zim ham shu turdag'i davlat stipendiyalariga harakat qilmoqdaman. O'z ishlarimning, mehnatlarimning samarasini ko'rish kelgusida, albatta, kuch bag'ishlaydi.

Har bir shaxs o'z imkoniyatidan kelib chiqib, o'z salohiyatini maksimal ishga slogan holda yurt ravnaqiga hissa qo'shish uchun qaysidir ma'noda javobgardir. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarni to'g'ri yo'nalishga targ'ib qilish, ko'rsatma berish va rag'batlantirish zarur. Ularning bu ishlar orqasidan erishgan har bir yutug'i davlat yutug'idir. Bu yo'lida yosh kadrlarimizga ilmiy- ma'rifiy yo'lida erkinlik berishimiz kerak. Bosim ostida, hech qanday rag'batlantirishlarsiz jamiyatga foydasi tegadigan kadr bo'lib yetishish imkonsiz.

Muhtaram Birinchi Prezidenttimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek „Bizdan ozod va obod, erkin va farovon davlat qolishi kerak“. Bu yo'lida jamiyatda yoshlarimiz uchun to'laqonli erkinlik va rag'batlantirishlar berilib, yetuk kadr bo'lib yetishib chiqishlari uchun qo'llab-quvvatlashlar zarurdir. Ularga sog'lom ruh va sog'lom muhit yaratib berishimiz kerak. Zero, farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lar, qudratli yurtning farzandlari esa sog'lom bo'lishar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.tuitkf.uz/ru/bview/iqtidorli-talabalar-bilan-ishlash-bo-limi>
2. <https://lex.uz/docs/-4320713?ONDATE=04.05.2019%2000>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/iqtidorli-talabalar-bilan-shug-ullanish-metodikasi-muhandislik-fanlari->
4. „Yoshlar – jamiyat poydevori“ ilmiy-amaliy maqolalar to'plami,-2020 [97]